

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Mamadaliyeva	
Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati	208
F.M.Mamadova	
Pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy jihatlari	211
Z.A.Boboyeva	
Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili.....	214
G.H.Axmedova	
Jorj Eliotning "Daniel deronda" romanining o'ziga xos jihatlari tahlili.....	219
F.A.Temirova	
Hsg misolida idiomatik lug'atni tuzish yondashuvlarining uslubiy tahlili: taqqoslash, xususiyatlari va tavsiyalari	222
G.Sh.Zununova	
Zamonaviy o'zbek turar joyining dastlabki manbalari haqidagi masalalar bo'yicha	226
F.K.Yusupjanova	
Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	231
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash	235
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi	241
D.A.Xolmatov	
Odil Yoqubov hikoyalarining janr xususiyatlari	247
Sh.K.Xujamberdiyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari	252
I.I.Soliyev	
OTMLar boshqaruvini isloh qilish va unga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati.....	257
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning gender xususiyatlari	264
D.D.Boymirzayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini isloh qilish va unga yangicha printsiplarini joriy qilish zarurati	270
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimediya vositalari asosida rivojlantirish omillari	275
F.A.Askarov	
Jismoniy yuklama to'g'risida umumiy tushuncha va jismoniy mashqlar yuklamasining pedagogik xususiyatlari	279
S.Y.Xushvaqto'v, M.M.Jurayev, N.M.Qutlimuratov	
Mahalliy xomashyolar asosida olingan yangi ionitga yod ionlarining sorbsiya kinetikasi.....	282
U.A.Buriyeva	
Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi	287
N.N.Teshayev	
Taraqqiyotning yangi bosqichida fuqarolik jamiyati ma'naviy-mafkuraviy omillarini mustahkamlash amaliyoti	291
M.Saminjonov	
Turli sohalardagi qasamyodlarning rasmiy tuzilishi.....	295

**PEDAGOGIK MADANIYAT VA KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHNING
USLUBIY JIHATLARI****МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И
КОМПЕТЕНТНОСТИ****METHODOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING PEDAGOGICAL CULTURE AND
COMPETENCE****¹Mamadova Feruzaxon Mirzaahmad qizi**¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada pedagogik madaniyat va kompetensiyani takomillashtirish zaruriyati, o'ziga xos usullari tahlil qilingan bo'lib, uning uslubiy jihatlari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется необходимость повышения педагогической культуры и компетентности, ее уникальные методы, а также освещаются ее методологические аспекты.

Abstract

In this article, the need to improve pedagogical culture and competence, its unique methods are analyzed, and its methodological aspects are highlighted.

Kalit so'zlar: madaniyat, pedagogik madaniyat, pedagogik kompetensiya, uslub, uslubiyot, takomillashtirish.

Ключевые слова: культура, педагогическая культура, педагогическая компетентность, стиль, методика, совершенствование.

Key words: culture, pedagogical culture, pedagogical competence, style, methodology, improvement.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi va imkoniyatlarini tadqiq qilish, jismoniy yetuklikning inson aqliy va ijtimoiy faolligiga ta'sirini o'rganish, xususan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirish ning yangicha ilmiy-amaliy pedagogik modellarini yaratish va ularni amalga oshirishda innovatsion usullar, texnologiyalarni qo'llashga oid ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy va ijodiy ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rish darkor. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda" [1]. Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyatda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, bo'lajak avlodni ham ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi global ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirishga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda.

G'arb davlatlarida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirish masalasi olimlar I.Martin, V.Ilinicha, O.Fadayeva, Z.Kozbayev, V.Medvedov, V.Koleda, O.Markevich, N.Tixonova, J.Xargrives, P.Vertinski, O.Otravenko, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braunlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonning mustaqillik yillarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirish va bu boradagi ta'limiy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ham ahamiyatlidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiyaning o'rgatish kabi pedagogik uslublaridan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida xilma-xil uslublar qo'llaniladi. Bu uslublar bevosita, his-tuyg'u bilan idrok etishdan yoki so'zdan, yoki amaliy harakat faoliyatidan foydalanishga asoslanadi. Yuklama va dam olish jismoniy tarbiya uslublarining o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanib, tarbiya jarayonida foydalaniladi. Yuklamani tashkil qilish va uni dam

olish bilan qo'shib bajarishning tartibi jismoniy tarbiya uslublari tuzilishining asosi bo'lib hisoblanadi. Yuklama samarasi uning hajmi va intensivligiga bog'liqdir. Yuklama hajmi berilgan jismoniy mashqlarning uzoq ta'sir qilishini hamda mashg'ulotlar davomida bajariladigan jismoniy ishning jami miqdori tushuniladi. Mashq yoki mashg'ulot miqdori unga sarf etilgan vaqt, bajarilgan ishning vazni, bajarilgan masofaning hajmi va boshqa ko'rsatkichlar me'zon hisoblanadi. Mamlakatimiz yoshlarida jismoniy madaniyat sifatlarini yuksaltirish maqsadida joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari tizimi – «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalari o'quvchi va talaba-yoshlarni sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning sportga qiziqishini, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini oshirish borasida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ushbu musobaqalar yosh sportchilarni saralab olish va terma jamoalarni tarkib toptirish, murabbiylarning mahorat darajasini yanada takomillashtirishda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Murabbiylar, hakamlar mazkur musobaqalarda ishtirok etish va tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'zlarining kasbiy malakasini oshirib borishi kuzatilmoqda. Shu sababdan, hech shubhasiz uch bosqichli sport musobaqalari tizimi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliy ijrosi va yoshlarda jismoniy madaniyat ko'nikmalarini o'stirish jarayonining uzviy qismi ekanligini e'tirof etish mumkin. Zotan, murabbiylar, hakamlar, sport ustalari va sportchilarning tajriba almashishi, innovatsiyalar ulashishlari ham jamiyatimizda jismoniy madaniyatni o'stirishga doir an'analarning shakllanayotganligi bilan o'lchanadi [3,4].

Umuman olganda oliy ta'lim muassasalari talabalarida jismoniy madaniyat sifatlarini tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyati ham mavjud. Jismoniy madaniyat sifatlariga ega bo'lish orqali talaba o'zida, oila a'zolarida ham sog'lom turmush tarzini shakllantirishi va bunday muttasil jarayon orqali ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishlariga ham hissa qo'shadi. Jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu orqali mamlakatda yashayotgan millat va elatlarning genetik borlig'ini ham sog'lomlashtirish va kelajakda sog'lom avlodlar dunyoga kelishiga zamin hozirlashdir. Bugungi global ekologik muammolar va tabiatdagi o'zgarishlar, ob-havoning, suvlarning ifloslanish darajasining kuchayishi va toza suv tanqisligi, tuproq unumdorligining pasayishi hamda sanoatlashuvning salbiy oqibatlari natijasida jamiyatning sog'lomlik darajasi kundan kunga orqaga ketmoqda. Bolalar tug'ilishidagi o'lim holatlari sonining ko'payishi, suv va havoning zaharlanishining salbiy oqibatlari, umuman olganda, tabiatning, atmosferaning buzilishi insoniyatning sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. «Jahonda populyatsion va individual miqyosda millat genafondini asrashuchun jamiyat a'zolarining sog'lom turmush tarziga rioya qilishlari muhimahamiyat kasb etmoqda. Ularning negizida esa, kelgusida mutaxassislik kasbiniegallayotgan ta'lim subyektlarining mustahkam salomatligi, jismoniy vaintellektual rivojlanganligini belgilab beruvchi valeologik kompetentlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tiborqaratilmoqda». Bunday vaziyatda jamiyatlarda jismoniy madaniyat ko'nikmalarini qaror toptirish va sog'lom turmush tarziga munosabatni ijobiylashtirish orqali insoniyat yashovchanligiga yuqori darajaga ko'rsatish mumkin [5].

Bundan tashqari oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish jamiyatimiz a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni milliy vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalariga, shu bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Hozirgi o'tish davrida uzoq tarixga ega bo'lgan madaniyatimizni yuksaltirishda ham oiladagi sog'lom turmush tarzi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mana shularni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiradi va bu oiladagi sog'lom muhitni belgilaydi. «Sog'lom tanda - sog' aql» degan xalqimizning ulug' bir naqli bor. Har bir odam sog'lom bo'lsagina yaxshi mehnat qilishi, ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi, yegan luqmasi taniga singishi, tiniqib uxlay olishini bilsa-da, o'sha sog' holatni saqlash ham vujudga, ham aqlga, ham ruhga o'z vaqtida madad berib turish kerakligini, bu faqat o'zimizning manfaatimizga aloqadorligini ba'zan unitib ham qo'yamiz.

Jismoniy tarbiya murabbiy pedagoglari quyidagi vazifalarni bajarishi shart [2]:

- dars yuksak darajada o'tishini ta'minlash va tegishli sinf jismoniy tarbiya dasturini to'liq bajarish;

- shifokor bilan birgalikda talabalarni tibbiy tekshiruvdan o'z vaqtida o'tkazib borish va o'z ishlarida tibbiy tekshiruv natijalarini hisobga olish;
- dars o'tkaziladigan joylarning tegishli sanitariya-gigiyena holatida saqlanishini ta'minlash;
- talabalarning hammasi jismoniy mashqlar bilan qulay kiyimlarda shug'ullanishlariga erishish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha o'qishdan tashqari ishlarni uyushtirish va o'tkazishda ishtirok etish hamda unga talabalarni keng jalb qilish;
- talabalarni jismoniy tarbiyalashning ahamiyati xaqida tushuntirish ishlari olib borish;
- jismoniy tarbiya sohasidagi bilimlarini muntazam oshirib borish;
- talabalarni jismoniy madaniyatga qiziqtirish va ularda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish odatlarni shakllantirish.

XULOSA

Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo'shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Manu shu chora-tadbirlar negzida ta'limiy islohotlar ham jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bois mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi va faol tarzda islohotlarni amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlashning mahsuldor tamoyillari va modellarini izlash bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 42
2. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2008. –B. 105.
3. Бозорова С. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологияси. Монография. Тошкент.: -Б. 70.
4. Зайниддинов Т.Б. Соғлом турмуш тарзини тўғри ташкил қилишда жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг педагогик фаолияти // Жисмоний тарбия ва саломатлик журнали., 2019, 2(75). –Б.58.
5. Маҳкамджанов К., Саламов Р., Икромов И. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. –Тошкент.: Иқтисод-молия, 2008. –Б.16.
6. Сирожов О. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг валеологик компетентлигини АКТ воситалари ёрдамида ривожлантириш технологиялари// "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2. May 2020. –Б.462